

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BOSHLANG`ICH PROFESSIONAL TA`LIMNING  
FAN DASTURI**

**Fan dasturining nomi: Adabiyot**

**Ajratilgan soat: 92**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKA XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI TOMONIDAN TASDIQLANGAN  
DASTUR ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN.**

**Tuzuvchi:** **M.Mavlonova** Chilonzor tumani 2-son kasb-hunar maktabi  
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

**Sh.Sultonova** Shayhontohur tumani kasb-hunar maktabi ona  
tili va adabiyot fani o`qituvchisi

**Taqrizchilar:** \_\_\_\_\_

## 1. O'quv dasturi umumiy talablari

<b>Dastur nomi</b>	<b>Adabiyot</b>
<b>Ajratilgan soat</b>	<b>92</b>
<b>Dasturning maqsadi</b>	<p>o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalarning fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish;</p> <p>milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;</p> <p>o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borish.</p>
<b>O'zlashtirish natijalari</b>	<p>mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o'quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash;</p> <p>bilimlarini mustaqil ravishda oshirib borish, kundalik faoliyatda til qoidalariga amal qilish hamda nutqiy jarayonda egallagan bilimlarni to'g'ri qo'llash;</p> <p>shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojga aylantirish;</p> <p>badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;</p>
<b>Bilimlar</b>	<p>jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;</p> <p>tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;</p> <p>badiiy asarlarda aks etgan ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalari anglash, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnatilgan olishga intilish, yovuzlikdan nafratlanish; Ko'rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni, muloqot jarayonida o'ziga qaratilgan nutqni, yoki o'zgalarning o'zaro muloqot jarayoni – suhbat mohiyatini tasavvur qila oladi, eslaydi, tushunadi;</li> <li>• Berilgan topshiriq, ma'lumotni qanday ketma-ketlikda bajarish usulini og'zaki ifodalay oladi, berilgan grammatik tamoyil va ma'lumotlarni og'zaki bayon qila oladi;</li> </ul>
<b>Ko'nikmalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og'zaki bayon qila oladi;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>Turli matndagi va jadvallardagi ma'lumotlardan kerakli bo'lgan detal, fikrni ajrata oladi, tushunadi, taqqoslaydi, fikrini umumlashtirib, og'zaki munosabat bildira oladi;</li> </ul>
<b>O'quv rejasiga muvofiq bog'liq bo'lgan boshqa o'quv dasturining nomi</b>	“Ona tili”, “Tarix” dasturi
<b>O'qitishni tashkiliy shakli</b>	N – Nazariy ta'lim; A – Amaliy ta'lim; NA – Nazariy va amaliy ta'lim birgalikda tashkil etiladi;
<b>Dasturga qo'yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O'qitish tili</b>	Guruhda belgilangan o'qitish tili asosida
<b>Baholash tartibi</b>	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
<b>O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash</b>	Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

### 3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'tkazilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

### 2. O'quv dastur mazmuni

T/r	Bo'lim va boblar nomi	Jami soatlar taqsimoti		
		Jami	O'qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1	Kirish	2	N	
2	Xalq og'zaki ijodi va qadimgi adabiyot namunalari	8	N,A	2
3	O'rta asrlar adabiyoti manzaralari	20	N,A	6
4	XVIII-XIX asrlar adabiyoti manzaralari	14	N,A	6
5	XX asr adabiyoti manzaralari	30	N,A	3
6	Zamonaviy adabiyot manzaralari	18	N,A	2
Jami:		92		24

### KIRISH: ADIB, ADABIYOT VA JAMIYAT.

Badiiy adabiyotning jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq ekani. So'zning sehrliligi, mo'jizaviy kuchi. O'zbek mutafakkirlari so'z qudrati haqida. Adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni. Adabiyotning markazida inson ruhiyati, uning hissiyoti turishi. O'zbek va dunyo adabiyoti munosabatlari. O'zbek adabiyoti umumochun adabiyotining uzviy bir qismi ekani. Milliy adabiyotimizning ochun adabiyotiga va uning o'zbek adabiyotiga ta'siri. Adabiy jarayonning uzluksiz estetik kechim ekani.

O'zbek adabiyoti tarixi uzluksiz adabiy jarayon tarixidan iborat ekani. Bugungi adabiy hodisalar kechagi tajribalarning mantiqiy davomi sifatida paydo bo'lgani. Shuning

uchun ham bu sinfdan boshlab adabiyotga uzluksiz jarayon, uning tarixiga tizimli kechim sifatida yondashish kerakligi. Adabiyotning davrlari haqida umumiy tushuncha.

### **XALQ OG‘ZAKI IJODI VA QADIMGI ADABIYOT NAMUNALARI**

“Alpomish” dostoni. *Nazariy ma'lumot*: Xalq dostonlari va ularning turlari.

Homer: “Iliada” yoki “Odissiya” dan parcha. *Nazariy ma'lumot*: Epik doston.

### **O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI MANZARALARI**

*Mumtoz o‘zbek adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlari. O‘rta asrlar jahon adabiyoti chig‘zilari.*

Yusuf Xos Hojib: “Qutadg‘u bilig”.

Alisher Navoiy: “Xamsa”chilik haqida tushuncha. “Farhod va Shirin” dostoni. *Nazariy ma'lumot*: Komil inson.

Boborahim Mashrab: G‘azallar (“Dunyog‘a kelib, loyig‘a bilmay bota qoldim”, “Ey, mening nozik nihol, oromijonim qaydasan?”, “To kiydi qizil o‘zini zebo qilayin deb”, “Malaksan yo bashar, yo huru g‘ilmongan, bilib bo‘lmas”, “Hech kima ma'lum emas, holi parishonim mening”, “Ko‘rsat jamoling mastonalarga...”, “Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay ..”, “O‘rtar”). *Nazariy ma'lumot*: Tasavvuf adabiyoti haqida tushuncha.

Migel de Servantes. “Don Kixot” romanidan parchalar.

**XVIII-XIX ASRLAR ADABIYOTI MANZARALARI umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi loyihasi XVIII-XIX asrlarda o‘zbek va jahon adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.**

Muhammad Rizo Ogahiy: G‘azallar (“Baland aylab quyoshg‘a poya Navro‘z”, “Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish”, “Iloho, har kuning Navro‘z bo‘lsin”, “Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina” g‘azallari). *Nazariy ma'lumot*: Tabiat lirikasi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ayollar. Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin ijodidan.

XIX asr ma‘rifatchilik adabiyoti. Furqat, Muqimiy, Zavqiy ijodidan.

Aleksandr Pushkin: “Yevgeniy Onegin” she‘riy romani. *Nazariy ma'lumot*: adabiy oqimlar: romantizm va realizm.

### **XX ASR ADABIYOTI MANZARALARI**

*XX asr o‘zbek va jahon adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.*

Erix Maria Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani.

Fitrat: “Abulfayzxon” dramasi. *Nazariy ma'lumot*: Adabiy asar qahramoni. Statik va dinamik obrazlar.

### **Kirish: Adabiyot – ma‘naviyatni yuksaltirish vositasi.**

Badiiy adabiyot inson ma‘naviyatini yuksaltirish vositasi ekanligi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati. Shaxsning shakllanishida kitob mutolaasining o‘rni.

### **XX ASR ADABIYOTI MANZARALARI (DAVOMI)**

Abdulla Qodiriy: “O‘tkan kunlar” romani. *Nazariy ma'lumot*: Badiiy asarda milliy ruh ifodasi.

Cho‘lpon: “Kecha va kunduz” romani. *Nazariy ma'lumot*: Badiiy uslub.

Mixail Bulgakov: “Itiyurak” qissasi.

Hamid Olimjon: She‘rlar (“O‘rik gullaganda”, “Sevgi”, “Ofeliyaning o‘limi”, “Kuygay”, “Na bo‘lg‘ay”). *Nazariy ma'lumot*: She‘riy vaznlar.

Oybek. “Qutlug‘ qon” romani.

Erkin Vohidov: “Ruhlar isyoni” dostoni. *Nazariy ma'lumot*: Doston.

Abdulla Oripov: “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni. *Nazariy ma'lumot*: Adabiy janrlar.

Omon Muxtor: “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi. *Nazariy ma'lumot*: Trilogiya.  
Chingiz Aytmatov: “Asrga tatigulik kun” romani yoki “Kassandra tamg‘asi” romani.

Rauf Parfi: She‘rlar (“Yomg‘ir yog‘ar”, “Xato qildim”, “Tong otmoqda”, “Yana qaytib keldim”, “Yoshlik zangor fasl..”, “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon”, “Bir tush ko‘rdim”, “Assalomu alaykum, dorning og‘ochi”, “Bir qushcha sayraydi mening ruhimda”). “Adashgan ruh” dostoni. *Nazariy ma'lumot*: Modernizm.

### **ZAMONAVIY ADABIYOT MANZARALARI**

*Zamonaviy adabiyot rivojlanish tendensiyalari.*

Ulug‘bek Hamdam: “Muvozanat” romani

Farida Afro‘z: “To‘rt tomon”, “Zamin kabi”, “Yurak”, “Ey dil”, “Ey, do‘st” she‘rlari.

Erkin A‘zam: “Jannat qaydadir yoki Jiydalidan chiqqan Jo‘raqul” dramasi.